



Farhod NISHONOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: sirojiddin@umail.uz

QarMII dotsenti, PhD D.Ismoilov taqrizi asosida

DESIGNING INDIVIDUAL EDUCATIONAL TRAJECTORIES IN TEACHING SPECIALIZED DISCIPLINES IN ECONOMIC FIELDS

Аннотация

This article addresses the issue of designing individual educational trajectories in the teaching of specialized disciplines in economic fields. It analyzes the scientific and methodological foundations of individualizing the educational process based on the personal needs, interests, and capabilities of students. The importance of pedagogical conditions, technological tools, and innovative approaches in forming individual educational trajectories is highlighted. This approach aims to develop students' professional competencies and aligns with the demands of the modern education system.

Key words: Individual educational trajectory, economic fields, specialized disciplines, educational process, individualization, professional competence, pedagogical conditions, innovative approaches.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАЕКТОРИИ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН В ЭКОНОМИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЯХ

Аннотация

Данная статья посвящена проектированию индивидуальной образовательной траектории в процессе преподавания специальных дисциплин в экономических направлениях. В работе рассматриваются научно-методические основы индивидуализации образовательного процесса в соответствии с личными потребностями, интересами и возможностями студентов. Также освещается значение педагогических условий, технологических средств и инновационных подходов в формировании индивидуальных образовательных траекторий. Этот подход способствует развитию профессиональных компетенций студентов и соответствует требованиям современной образовательной системы.

Ключевые слова: Индивидуальная образовательная траектория, экономические направления, специальные дисциплины, образовательный процесс, индивидуализация, профессиональная компетенция, педагогические условия, инновационные подходы.

IQTISODIYOT YO'NALISHLARIDA IXTISOSLIK FANLARINI O'QITISHNING INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASHTIRISH

Аннотatsiya

Ushbu maqolada iqtisodiyot yo'nalishlarida ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish masalasiga bag'ishlangan. Unda talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlariga mos ravishda ta'lim jarayonini individualizatsiya qilishning ilmiy-uslubiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, texnologik vositalari va innovatsion yondashuvlarining ahamiyati yoritiladi. Mazkur yondashuv talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi va zamonaviy ta'lim tizimining talablariga javob beradi.

Kalit so'zlar: Individual ta'lim trayektoriyasi, iqtisodiyot yo'nalishlari, ixtisoslik fanlari, ta'lim jarayoni, individualizatsiya, kasbiy kompetensiya, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion yondashuvlar.

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyot yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy sohalar mutaxassislaridan keng qamrovli nazariy bilimlar bilan bir qatorda yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalar va amaliy ko'nikmalar talab qilinadi. Ta'lim jarayonining mazmuni va metodlarini talabalarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari hamda qobiliyatlariga moslashtirish ushbu maqsadlarga erishishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish talabaning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, uni faol o'quv subyekti sifatida shakllantiradi va shaxsiy rivojlanishga yo'naltiradi. Shu ma'noda, iqtisodiyot yo'nalishlarida ixtisoslik fanlarini o'qitishda individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalashtirish ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishni, o'quv jarayonining moslashuvchanligini ta'minlashni hamda talabalar bilimini chuqurlashtirishni talab qiladi. Ushbu maqolada iqtisodiyot yo'nalishlarida ixtisoslik fanlarini o'qitishda individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini, pedagogik shart-sharoitlari, texnologik vositalari hamda innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi hamda iqtisodiy sohaning o'ziga xos ehtiyojlarini qondiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiyot yo'nalishlarida ixtisoslik fanlarini o'qitishning individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalashtirish bo'yicha mavjud adabiyotlar talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini o'rganishga katta e'tibor qaratadi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilishdan ma'lum bo'ladiki, ta'lim jarayonining individualizatsiyasiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda quyidagi asosiy yo'nalishlar yoritilgan:

Ta'lim jarayonining individualizatsiyasi nazariyalari va usullari. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi (Vygotskiy[1], Elkonin[2], Rubinshteyn[3] kabi tadqiqotchilar) individual ta'lim trayektoriyalarining nazariy asoslarini belgilaydi. Ushbu yondashuvlar shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashgan ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan. Shuningdek, Bloom'ning taxonomiyasi ta'lim maqsadlarini individualizatsiya qilishda keng qo'llaniladi.

Texnologik vositalardan foydalanish. XXI asr ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi (Mishra[4] va Koehler[5] tomonidan taklif qilingan TPAC model) individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayonida platformalar (masalan, Moodle, Google Classroom) va adaptiv dasturiy ta'minot yordamida talabalar ehtiyojlariga mos ta'lim mazmuni taklif etilmoqda.

Iqtisodiyot yo'nalishlariga xos yondashuvlar. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha ta'limni individualizatsiya qilishda kasbiy malaka standartlari, mehnat bozorining ehtiyojlari va zamonaviy iqtisodiy dasturlarni hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Davenport[6] va Prusak[7] tomonidan ishlab chiqilgan bilim iqtisodiyoti konsepsiyasi, shuningdek, Drucker[8] tomonidan ilgari surilgan bilimlar jamiyatida o'quvchilarni innovatsion fikrlashga yo'naltirish g'oyalari bu borada dolzarb bo'lib qolmoqda.

Psixologik-pedagogik sharoitlar. Ta'lim jarayonida individualizatsiya uchun psixologik-pedagogik sharoitlarning yaratilishi muhim hisoblanadi (Leontev[8], Ananev[9]). Bu sharoitlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlash, talabalarni o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Ta'lim mazmunining moslashuvchanligi. Adabiyotlarda ta'lim mazmunining moslashuvchanligi va talabaga mos kurslarni loyihalashtirish (adaptive learning) bo'yicha amaliy tadqiqotlar keng yoritilgan. Ushbu yondashuv talabaning qiziqishlari va bilim darajasiga mos ta'lim mazmunini shakllantirish imkonini beradi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot yo'nalishlarida ixtisoslik fanlarini o'qitishda individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali vosita sifatida e'tirof etilgan. Biroq, ushbu yo'nalishda raqamli texnologiyalar, pedagogik modellar va iqtisodiyot fanlarining o'ziga xos xususiyatlarini integratsiya qilishga qaratilgan qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda iqtisodiyot yo'nalishlarida ixtisoslik fanlarini o'qitishda individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalashtirish masalalarini o'rganish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

Nazariy-tahliliy yondashuv. Ilmiy va uslubiy adabiyotlar, xalqaro va milliy standartlar, ilg'or pedagogik tajribalar tahlil qilindi. Ushbu yondashuv yordamida ta'lim jarayonini individualizatsiya qilishning nazariy asoslari va dolzarb muammolari aniqlandi. Nazariy asoslar: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, Bloom taxonomiyasi va bilimlarning moslashuvchanligi bo'yicha yondashuvlar.

Amaliy-tajriba yondashuvi. Tadqiqotning asosiy bosqichlarida amaliy tajribalar va kuzatuvlar o'tkazildi. Bunda: Diagnostik tadqiqotlar: talabalar ehtiyojlarini aniqlash, qiziqishlari va bilim darajalarini baholash uchun so'rovnomalar, testlar va intervyular ishlatildi.

Ekspiriment: ta'lim jarayonida individual ta'lim trayektoriyasini joriy etish uchun kichik guruhli eksperimental dasturlar ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi.

Raqamli texnologiyalarni tatbiq etish. Tadqiqotda individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalashtirishda zamonaviy raqamli vositalardan foydalanildi: Adaptiya platformalari: Moodle, Google Classroom va boshqa platformalarda o'quv materiallarini moslashtirish.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida iqtisodiyot yo'nalishlarida ixtisoslik fanlarini o'qitishda individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganildi. Talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va bilim darajalarini chuqur tahlil qilish asosida o'quv jarayonini

individualizatsiya qilish yondashuvlari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish jarayoni ta'lim mazmunining moslashuvchanligi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda sezilarli samara beradi.

Ekspiriment davomida moslashtirilgan ta'lim rejalari ishlab chiqilib, ular orqali talabalarga ta'lim yo'nalishini mustaqil tanlash imkoniyati berildi. Ushbu yondashuv o'quv jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarni o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiradi. Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning bilim olish jarayonida ishtirokini kuchaytirib, ularning motivatsiyasini oshirganligi kuzatildi. Tahlillar natijalariga ko'ra, individual yondashuv joriy etilgan guruhlarda o'zlashtirish darajasi an'anaviy o'qitish metodlariga nisbatan sezilarli ravishda yuqori bo'ldi.

Ekspert baholariga ko'ra, individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalashtirish talabalarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy mehnat bozori talabalariga mos ravishda shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Natijalar, shuningdek, past o'zlashtirishga ega talabalar uchun moslashtirilgan ta'lim mazmunining samarali ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv iqtisodiyot yo'nalishlarida ta'lim sifatini yaxshilash va talabalarning bozor talablariga mos keluvchi raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur metodologiya kelgusida ta'lim jarayonini yanada modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanish yo'lida mustahkam poydevor yaratadi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari iqtisodiyot yo'nalishlarida ixtisoslik fanlarini o'qitishda individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalashtirishning samaradorligini tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida talabalarning individual ehtiyojlarini aniqlash, ularning qiziqishlari va qobiliyatlariga mos ta'lim yo'nalishlarini yaratish talim jarayonining samaradorligini oshirishga olib kelgani kuzatildi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash va moslashtirilgan ta'lim rejalari o'quv jarayonining sifatini sezilarli darajada yaxshilab, talabalar o'rtasida yuqori motivatsiya va qiziqish uyg'otdi. Shuningdek, o'quv jarayonini individualizatsiya qilish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalari rivojlanib, ular zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida shakllanish imkoniyatini qo'lga kiritdilar. Ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan usulda tashkil etish an'anaviy yondashuvlarga qaraganda samaraliroq ekanligi tadqiqotda qayd etildi.

Ta'limni moslashtirish: Talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini moslashtirishni tizimli ravishda joriy qilish zarur. Bu jarayonda moslashtirilgan o'quv rejalari ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish lozim.

Raqamli vositalarni kengaytirish: Ta'lim jarayonida Moodle, Google Classroom kabi raqamli platformalar imkoniyatlarini kengaytirib, moslashtirilgan va adaptiv ta'lim resurslarini yaratish tavsiya etiladi.

Innovatsion metodlarni qo'llash: Talabalar bilimini chuqurlashtirish va motivatsiyasini oshirish maqsadida interaktiv va texnologik yondashuvlar, jumladan, gamifikatsiya va virtual laboratoriyalarni kengroq joriy qilish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy, L. S. (1978). Muloqot va rivojlanish psixologiyasi. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
2. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: David McKay Company.
3. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.
4. Davenport, T. H., & Prusak, L. (1998). Working Knowledge: How Organizations Manage What They Know. Boston: Harvard Business School Press.
5. Drucker, P. F. (1993). Post-Capitalist Society. New York: HarperBusiness.
6. Leontev, A. N. (1981). Faoliyat, ong va shaxs. Moskva: Moskva universiteti nashriyoti.
7. Ananev, B. G. (2001). Shaxs rivojlanishi va pedagogika psixologiyasi. Sankt-Peterburg: Piter.
8. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
9. OECD. (2019). Trends Shaping Education 2019. Paris: OECD Publishing.
10. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman.